

AQSHNING G‘ARBIY YEVROPA DAVLATLARI BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLARI TARIXI (1945-1990 yy)

Qodirov Namoz Yodgor o‘g‘li

BuxDU “Jahon tarixi” kafedrasi 2-kurs magistranti

Annatatsiya:

Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushidan keyin Amerika Qo’shma Shtatlarining G‘arbiy Yevropa mamlakatlari bilan diplomatik munosabatlari tarixi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Аннотация:

В данной статье научно анализируется история дипломатических отношений между Соединенными Штатами Америки и странами Западной Европы после Второй мировой войны.

Abstract:

This article scientifically analyzes the history of diplomatic relations between the United States of America and Western European countries after the Second World War.

Kalit so’zlar: AQSh, Buyuk Britaniya, G‘arbiy Yevropa, “sovuq urush”, ikkinchi jahon urushi, “Trumen doktrinasi”, Marshall rejasi”, “Yevropani tiklash dasturi”, NATO, proteksionizm, diplomatiya.

Ключевые слова: США, Великобритания, Западная Европа, холодная война, Вторая мировая война, доктрина Трумэна, план Маршалла, программа восстановления Европы, НАТО, протекционизм, дипломатия.

Key words: USA, Great Britain, Western Europe, Cold War, World War II, Truman Doctrine, Marshall Plan, European Recovery Program, NATO, protectionism, diplomacy.

Dunyoda boshlangan ikkinchi jahon urushi 1939-1945 yillar davomida dunyodagi barcha xalqlar boshiga juda ko’plab yo’qotishlarni olib keldi. Ko’pgina davlatlarni

bir biriga iqtisodiy qaram qilib qo'ydi. Bu davrda urushni boshlagan Germaniyaga qarshi antigitler koalitsiyasi davlatlari o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelib, bu esa vaqt o'tgani sari tobora jiddiy tus olib bordi. Bu qarama qarshilikning keskinlashuvi avval koalitsyaning amalda parchalanishiga, so'ng esa "sovujurushning" boshlanishiga sabab bo'ldi. Bu urush ta'sirida dunyo ikki qutbga bo'lib ketdi. "Sovujurush" siyosati doirasida Amerika Qo'shma Shtatlari rahbari Trumen tashqi siyosatda xavfli qadamlar tashladi va bir qator tashabbuslarni qabul qildi. Aynan uning davrida "Trumen doktrinasi", Marshall rejasi" kabilar bor edi[1].

Urushdan keyin AQSh davlat kotibi bo'lib faoliyat yuritgan J.Marshall o'zing "reja" siga ko'ra o'zing Yevropadagi ittifoqchilariga urush paytida ishdan chiqqan iqtisodiyotni qayta tiklashga yordam berishi kerak edi. Bu reja amal qilgan 1948-1952 yillar davomida AQSh juda katta miqtordagi mablag'ni 12,5 mlrd dollorni Yevropa mamlakatlari iqtisodiyotiga sarfladi biroq, bu mamlakatarni itisodiy jihatdan o'ziga qaram qilib qo'ydi[2]. "Marshall rejasi" ga ko'ra AQSh Yevropa davlatlariga quyidagi maqsadlarni amalga oshirmoqchi edi:

1-Yevropa mamlakatlarida yuz berishi mumkin bo'lган ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni oldini olish;

2-Yevropada vaziyatni o'zi xohlaganday ko'rinishda barqaror saqlab turush;

3-Yevropa davlatlarining so'lga burilib ketish xavfini kamaytirish kabi maqsadlar ko'zlangan edi.

"Marshall rejasi" aslida "Yevropani tiklash dasturi" (European Recovery Program) deb nomlangan dastur bo'lib, 1947 yilda AQSh davlat kotibi Jorj C.Marshall tomonidan tayyorlangan va 1948 yilda kuchgan kirgan. Unga ko'ra Yevropa davlatlarining 17 tasi ushbu dastur yordamida iqtisodiy jihatdan qo'llab quvvatlanishi belgilangan[3].

1947 yil 5-iyunda qabul qilingan va "Marshall rejasi" deb nom olgan iqtisodiy yordam berish dasturga ko'ra Yevropaning 16 ta davlati bu dastur doirasida iqtisodiyoti tiklanishi kerak edi [4]. AQSh ikkinchi jahon urushidan keyin Yevropa davlatlari bilan ittifoqchilik siyosatini davom ettirib, Shimoliy Atlantika shartnomasi – NATO tashkilotiga birlashtirgan. Bu ittifoq Amerikaning Vashington shahrida 1949-yilning 4-aprelida 12 davlat ishtirokida tuzildi. Bu davlatlar tarkibiga Yevropaning Buyuk Biritaniya, Fransiya, Kanada, Belgiya, Daniya, Islandiya, Italiya, Lyuksenburg, Gollandiya, Norvegiya, Portugaliya kabilar kiritilgan [5].

NATO harbiy-siyosiy tashkiloti Yevropani tashqi ta'sirlardan himoya qilish maqsadida tuzilgan tashkilot hisoblanadi[6].

Ta'kidlash joizki, NATO tashkilotining tuzilishi Amerika va Yevropa davlatlarining diplomatik aloqalarining mustahkamlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. AQSh prezidenti R.Reygan 1983 –yilda “strategik mudofa tashabbusi” rejasini e'lon qilib, bu reja asosida raketaga qarshi qurolni qisman kosmosga joylashtirish nazarda tutilgan. Buning natijasida raketadan mudofaning mavjud tizimini butunlay yaroqsiz holga kelib qolishi aniq bo'lgan. Bundan tashqari 1983-yildan boshlab AQSh o'z raketalarini Yevropa mamlakatlariga joylashtirishni boshlagan. AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlari o'rtaсидаги bu ittifoq tufayli AQSh 1979-yildan boshlab Yaqin Sharqda tashabbusini o'z qo'liga ola boshlagan[7].

AQSh va G'arbiy Yevropa davlatlari o'rtaсидаги aloqalar va iqtisodiy yordam natijasida 50-yillarning boshlariga kelib ushbu mamlakatlarning iqtisodiyoti yuqori suratlar bilan rivojlandi. Bunga bir qancha omillar ham o'zining tasirini ko'rsatgan. Bular:

1-Ikkinci jahon urushi va urushdan keyingi davrda AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlari moliyaviy va pul beqarorligi vujudga kelishining oldini olish choralarini ko'rib, xususan, xalqaro valyuta fondi va Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tashkil etdilar .

2-AQSh 1948-1952-yillar oralig'ida g'arb davlatlariga “Marshal rejasi” asosida 13 mlrd dollar yordam ko'rsatgan.

3-bu davrda xalqaro savdo uchun qulay sharoit yaratilib, bunga proteksionizm[8] va boj to'siqlarini amalda bartaraf etilganligi edi.

O'sha davrda Proteksionizm import sanoat mahsulotlari uchun yuqori boj va o'z sanoat mahsulotlari uchun eksport mukofotlari belgilashda yaqqol ko'ringan. Shuningdek, tashqi xom-ashyo importi uchun bojlar bekor qilingan holda, shunday muhim xom-ashyo va mahsulotlar uchun eksport bojlari joriy etilgan. Bu jarayon dastlabki bosqichda AQSh va G'arbiy Yevropa davlatlari o'rtaсидада mamlakatlarni industriyalashtirishga xizmat qilgan va ijobjiy rol o'ynagan. 1948-1960-yillarda xalqaro savdoning yillik o'rtacha o'sishi 6 %ni, 1960-1973-yillarda esa 9 %ni tashkil etgan. Yevropa mamlakatlarida davlatlararo savdo hajmi 1950-1970-yillar davomida 18 mlrd dollordan 129 mlrd dollorga yetdi. Birgina AQShning o'zi olib kelinadigan Tovar uchun to'lanaдigan bojni 50 foizga kamaytirishi Yevropa davlatlarining iqtisodiy taraqqiyot manfaatiga xizmat qilganligini ko'rish mumkin.

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st March, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

Xulosa qilib aytganda G'arbiy Yevropa davlatlarining ikkinchi jahon urushidan so'ng Amerika Qo'shma Shtatlari bilan diplomatik munosabatlari ijobiy tus, ularning aksariyati Amerika kiritgan kapital bilan o'z iqtisodiyotini tiklab olgan. Biroq, Sharqiy Yevropa davlatlari Sovet davlati ta'siri tushib qolib, sotsialistik davlatlar sifatida, kapitalistik davlatlarga qaraganda iqtisodiyotining rivojlanishi kutgan natija bermadi.

Foydalanilgan davlat ro'yxati:

1. Kichkilov X., Fayzullayeva M. Eng yangi tarix (1945-2010 yy) o'quv qo'llanma. Toshkent.: "Yangi nashr", 2011-yil. -B. 289.
2. Александров В.В. Новейшая история стран Европы и Америки. –Москва., 1988 г.
3. <https://uz.m.wikipedia.org>
4. Lafasov M. Jahon tarixi (1918-2010). -Toshkent.: "Turon-iqbol", 2013. –B.145.
5. O'sha asarda. -B. 146.
6. [uz.m.wikipedia.org/wiki NATO](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/NATO)
7. Lafasov M. Jahon tarixi (1918-2010). -Toshkent.: "Turon-iqbol", 2013. – B.154.
8. Proteksionizm-lot. protectio-(panalash) davlatning ichki bozorni chet el raqobatidan himoya qilish va tovar ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorga chiqishini rag'batlantirishga qaratilgan iqtisodiy siyosati. // O'z.ME. Birinchi jild. –Toshkent. 2000.